

QOZOG‘ISTONDA O‘ZBEKISTONNI O‘RGANILISHI

Elmamatova Nigina Shuxrat qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Manbashunoslik, tarixshunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

Mutaxassisligi 1-kurs magistiranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qozog‘istonda O‘zbekistonning o‘rganilishi jarayoni hamda ikki davlat o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy, ta’lim va siyosiy hamkorlikning rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida shakllangan strategik sheriklikning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Xususan, madaniy almashinuvlar, turizm rivoji, ilmiy va akademik hamkorlik, shuningdek, 2023–2025-yillarda amalga oshirilgan qo‘shma loyihalar va diplomatik tashriflar tahlil etilgan. Maqolada rasmiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy axborot manbalari asosida olingan ma’lumotlar umumlashtirilgan. Tadqiqot natijalari ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va integratsiyani mustahkamlashda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Qozog‘iston, madaniy hamkorlik, strategik sheriklik, turizm, ilmiy almashinuv, Markaziy Osiyo.

STUDY OF UZBEKISTAN IN KAZAKHSTAN

ABSTRACT

This article analyzes the process of studying Uzbekistan in Kazakhstan and examines the development of cultural, economic, educational, and political cooperation between the two countries. The research highlights the main directions of the strategic partnership formed between Uzbekistan and Kazakhstan in the post-independence period. Particular attention is paid to cultural exchanges, tourism development, academic and scientific cooperation, as well as joint projects and diplomatic visits implemented during 2023–2025. The study is based on official documents, scholarly literature, and up-to-date analytical sources. The findings demonstrate that bilateral cooperation between Uzbekistan and

Kazakhstan plays a significant role in strengthening regional stability and integration in Central Asia.

Keywords: Uzbekistan, Kazakhstan, cultural cooperation, strategic partnership, tourism, academic exchange, Central Asia.

KIRISH

Dolzarbli. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlar bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Qozog‘iston O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biri bo‘lib, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash jarayonida yetakchi o‘rin egallaydi. Ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalishda hali to‘liq ishga solinmagan imkoniyatlar mavjud. O‘zbekiston va Qozog‘istonning ikki tomonlama hamkorligi mintaqada tinchlikni saqlash va umumiy muammolarni birgalikda hal etishga xizmat qilmoqda. Mustaqillikdan keyingi davrda tomonlar o‘rtasida yuzlab muhim hujjatlar imzolangan bo‘lib, bu munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Savdo aylanmasining yil sayin oshib borishi iqtisodiy hamkorlikning amaliy natijalari mavjudligini ko‘rsatadi. Davlat rahbarlarining muntazam o‘zaro tashriflari esa siyosiy muloqotning yuqori darajada ekanidan dalolat beradi. Ushbu jarayonlar O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi aloqalarning strategik xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Aynan shunday sharoitda O‘zbekistonning Qozog‘istondagi o‘rganilishi ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur mavzuni tadqiq etish mintaqaviy hamkorlikning mazmuni va istiqbollari chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ilmiy va amaliy ahamiyati. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlik bugungi kunda ixtisoslashgan institutlar darajasida izchil rivojlanib, ikki davlat o‘rtasidagi strategik muloqotning muhim yo‘nalishiga aylangan. Davlat rahbarlari uchrashuvlarida ilm-fan, ta‘lim, madaniyat, san‘at, turizm va sport sohalaridagi aloqalarni kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda o‘tkazilayotgan madaniyat va kino kunlari, sport musobaqalari hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ikki tomonlama hamkorlikning amaliy natijalarini namoyon etadi. O‘zbekiston va Qozog‘iston ijodiy jamoalarining xalqaro festival, tanlov va ko‘rgazmalarda muntazam ishtirok etishi madaniy aloqalarning faollashganidan dalolat beradi. Masalan, 2022 yilda O‘zbekistonda qozoq xalqining buyuk mutafakkiri Abay Qo‘nonboev hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadbirlarning o‘tkazilishi ikki xalq o‘rtasidagi ma‘naviy yaqinlikni mustahkamladi. Shu yil dekabr oyida ikki davlat rahbarlarining Abay merosiga bag‘ishlangan ko‘rgazmani birgalikda tomosha qilishi madaniy hamkorlikka berilayotgan yuksak e‘tiborni ko‘rsatdi.

Ikki tomonlama aloqalarning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida turizm sohasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. 2021 yilda imzolangan “Yo‘l xaritasi” natijasida o‘zaro sayyohlik oqimi sezilarli darajada oshib, Qozog‘istondan O‘zbekistonga kelayotgan

turistlar soni 1,3 millionga yetdi. Shu jarayonlar O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va strategik sheriklikning bugungi kunda ham muvaffaqiyatli rivojlanayotganini yaqqol ko'rsatadi. Ushbu mavzu nafaqat ikki davlatning madaniy-gumanitar va strategik aloqalarini chuqur o'rganishga, balki mintaqaviy hamkorlikning istiqbollari va amaliy natijalarini tahlil qilishga ham xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi – O'zbekistonning Qozog'istonda o'rganilishi jarayonini tahlil qilish orqali ikki davlat o'rtasidagi madaniy, gumanitar va strategik hamkorlikning mohiyatini aniqlash, mavjud aloqalarni chuqur o'rganish va ularning istiqbollarini ilmiy asosda baholashdir.

Vazifalari:

1. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi tarixiy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni tahlil qilish;
2. Madaniy-gumanitar hamkorlik sohasidagi amaliy tadbirlar, festival va ko'rgazmalar, shuningdek turizm rivojini o'rganish;
3. Mintaqaviy hamkorlikning bugungi dolzarb yo'nalishlarini aniqlash va istiqbollarini baholash;
4. O'rganilgan natijalar asosida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy, turizm, ta'lim va fan sohasidagi hamkorlik keng ko'lamli tadbirlar va loyihalar orqali mustahkamlanmoqda. Ikkala davlat tomonidan o'tkazilgan ko'rgazmalar, festivallar, gastrol safarlari va forumlar xalqlar o'rtasidagi do'stlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 2023-yilda Samarqand va Buxoroda Qozog'iston madaniyati kunlari, 2024-yilda esa Ostona va Olmaotada O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazilib, madaniy almashinuvni yanada faollashtirdi. Turizm sohasida hamkorlik, xususan Buyuk Ipak yo'li bo'ylab sayyohlik yo'nalishlarini birgalikda targ'ib qilish, xorijiy sayyohlarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Diniy va ziyorat turizmi yo'nalishlari rivojlanib, qo'shma sayohat paketlari tashkil etilmoqda. Ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik, jumladan akademik almashinuv va ikki darajali dasturlar, gumanitar aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Mandelbaum [1994] ta'kidlashicha, 1991-yilda Markaziy Osiyoning beshta respublikasi, jumladan O'zbekiston va Qozog'iston, mustaqil tashqi siyosat olib borish vazifasiga duch keldi va bu jarayon ularning xalqaro maydondagi pozitsiyasini

shakllantirdi. Ular o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish bilan birga, Rossiya, Islom mamlakatlari va G‘arb bilan munosabatlarni muvofiqlashtirishga intilishdi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi strategik sheriklik va mintaqaviy barqarorlik, xususan, O‘zbekiston va Qozog‘istonning doimiy diplomatik aloqalari va forumlarda ishtiroki orqali mustahkamlanmoqda. Bu jarayon ikki davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Davlat rahbarlarining tashabbuslari uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish uchun poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ikki mamlakatning Markaziy Osiyo va xalqaro forumlardagi hamkorligi mintaqaning barqarorligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik ikki davlatni yangi tashabbuslar, strategik loyihalar va gumanitar dasturlar orqali birlashtiradi. Shu tarzda, O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlari o‘zaro ishonch, ochiqlik va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan strategik sheriklikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu hamkorlik butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. «2025-yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston tomonidan bir qator qo‘shma loyihalar va diplomatik tashriflar amalga oshirildi. Jumladan, ikki mamlakatning tashqi ishlar vazirlari uchrashuvlari, parlamentlararo yo‘l xaritalari va qo‘shma iqtisodiy, ilmiy hamkorlik loyihalari ishga tushirildi [Kazakhstan Institute for Strategic Studies, 2025; UzDaily.com, 2025; Qazinform News Agency, 2025].»

Metodologiya

1. Tadqiqot usuli

Ushbu maqolada O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi madaniy-iqtisodiy va strategik hamkorlikni o‘rganish uchun sifatli tadqiqot usuli qo‘llanildi. Bu usul voqealar, jarayonlar va strategik tashabbuslarni kontekst bilan birga tushunishga imkon beradi.

2. Ma’lumotlar

Mavzuda ishlatilgan ma’lumotlar rasmiy axborot agentliklari, davlat rahbarlari tashabbuslari va diplomatik tashriflar bilan bog‘liq yangiliklar, shuningdek ilmiy maqolalar va tahliliy ishlar hisoblanadi [Dunyo News Agency, 2025; Mirkomilov & Tangirova, 2024; Shokh, 2023]. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillik davridagi tashqi siyosati va xalqaro maydondagi aloqalari tahlil qilindi [Mandelbaum, 1994].

3. Tahlil usuli

Ma’lumotlarni tahlil qilish sifatli yondashuv asosida amalga oshirildi, voqealar va jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va strategik ta’siri hisobga olindi. Bu yondashuv ikki davlatning madaniy, iqtisodiy, turizm, ta’lim va ilm-fan sohalaridagi hamkorligini uzviy

va ilmiy asoslangan tarzda tahlil qilishga imkon berdi. Tadqiqot natijalari adabiyotlar tahlili va amaliy misollar orqali yakuniy xulosalarni chiqarishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy-iqtisodiy hamkorlik izchil rivojlanib, ikki davlatning strategik sherikligi mustahkamlandi [Mirkomilov va Tangirova, 2024]. Madaniy sohada, 2023-yilda Samarqand va Buxoroda Qozog'iston madaniyati kunlari, 2024-yilda Ostona va Olmaotada O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazilib, xalqlar o'rtasida madaniy almashinuv va do'stlik sezilarli darajada kengaydi. Turizm yo'nalishlarida, xususan Buyuk Ipak yo'li bo'ylab qo'shma sayyohlik paketlari tashkil etilishi, xorijiy sayyohlarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shmoqda. Iqtisodiy sohada savdo, investitsiya, energetika va qishloq xo'jaligi loyihalari ikki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Transport va logistika tizimlarida yangi yo'nalishlarning ochilishi tovar va yuk almashinuvini samarali qilishga imkon berdi [Shokh, 2023]. Ta'lim va ilmiy sohada universitetlararo akademik almashinuv va konferensiyalar ikki mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ikki davlat rahbarlarining tashabbuslari va diplomatik tashriflari uzoq muddatli strategik loyihalarni amalga oshirish uchun poydevor yaratdi.

1991-yildan boshlab, O'zbekiston va Qozog'iston o'z mustaqil tashqi siyosatini rivojlantirishga intilib, mintaqaviy barqarorlik va strategik sheriklikni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Siyosiy tashriflar va yuqori darajadagi uchrashuvlar ikki davlat o'rtasidagi ishonch va ochiqlikni oshirdi. Masalan, 2023-yil 18-19 fevral kunlari O'zbekiston tashqi ishlar vaziri B. Saidov Ostona shahriga rasmiy javob tashrifi bilan bordi va tashrif doirasida ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari rahbarlari uchrashuv bayonnomasi qabul qilindi. Shu bilan birga, Oliy davlatlararo kengash qarori loyihasi ham tasdiqlandi [Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Kazakhstan, 2024].

2024-yil 15 aprel va 26 noyabrda Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlari yig'ilishlarida ishtirok etish orqali siyosiy hamkorlikning yangi mexanizmlari mustahkamlandi. Qonun chiqaruvchi organlar darajasida ham samarali aloqalar yo'lga qo'yildi: O'zbekiston Oliy Majlisi Spikeri N. Ismoilov va Qozog'iston Parlamenti Raisi N. Nigmatulin rasmiy tashriflar bilan almashildi. 2023-yil 25-26 oktabrda Parlamentlararo hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi, 2024-yil 11-12 sentyabrda esa Ikkinchi Markaziy Osiyo parlamentlararo forumida yuqori darajadagi uchrashuvlar amalga oshirildi. Madaniy va ta'lim sohasidagi hamkorlik ham kengaymoqda: ko'rgazmalar, festivallar, gastrol safarlari va forumlar xalqlar o'rtasidagi do'stlikni rivojlantirmoqda. Ta'lim va ilm-fan sohasida akademik almashinuv va ikki darajali dasturlar orqali talabalar va ilmiy xodimlar o'rtasida gumanitar aloqalar mustahkamlanmoqda. Turizm sohasida esa

Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab qo‘shma sayyohlik yo‘nalishlari va diniy ziyorat turizmi yo‘nalishlari rivojlantirildi, bu esa yangi ish o‘rinlarini yaratishga va xorijiy mehmonlarni jalb qilishga xizmat qilmoqda. Siyosiy, madaniy, turizm va ta‘lim sohalaridagi integratsiya ikki davlatning strategik sheriklik va mintaqaviy barqarorlikni rivojlantirishdagi rolini oshirmoqda. Natijada, O‘zbekiston-Qozog‘iston hamkorligi butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror rivojlanish va uyushqoqlikni ta‘minlaydigan muhim omilga aylanishini ko‘rsatmoqda.

2025-yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlik yanada kengayib, strategik sheriklikni mustahkamlashda yangi bosqichga ko‘tarildi. Mintaqaviy ilmiy va tahliliy sohada qo‘shma loyihalar amalga oshirildi; Qozog‘iston Prezidenti huzuridagi Strategik Tadqiqotlar Instituti va O‘zbekiston Prezident huzuridagi Strategik va Mintaqalararo Tadqiqotlar Instituti bir qator akademik va ilmiy loyihalarni kelishib, Astana Think Tank Forumida hamkorlikni kuchaytirdi [kisi.kz, 2025]. Shu yilning noyabrida prezidentlar videokonferensiyada ishtirok etib, sanoat, qurilish, moliya, logistika va turizm sohalarini qamrab olgan \$1,2 milliardlik yetti qo‘shma loyihani ishga tushirdi[qazinform.com, 2025].



1-rasm. Qosim-Jomart Tokayev va Shavkat Mirziyoyev videokonferensaloqa orqali Qozog‘iston va O‘zbekistonning qo‘shma loyihalarini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi

Bu loyihalar ikki davlat iqtisodiyotini mustahkamlash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Parlamentlararo hamkorlik sohasida 2025-yilda O‘zbekiston Oliy Majlisi va Qozog‘iston Senati o‘rtasida 2025–2026 yillarga mo‘ljallangan hamkorlik yo‘l xaritasi imzolandi [uzdaily.uz, 2025]. Shu bilan birga, transchegaraviy ekologik hamkorlikda saiga anteloplarini himoya qilish bo‘yicha memorandum tayyorlandi, bu biologik xilma-xillikni saqlash va ekologik muammolarni birgalikda hal etishga xizmat

qiladi. Energetika sohasida hamkorlik yanada rivojlantirilib, Qozog‘iston va O‘zbekiston Qirg‘izistonga qish mavsumida elektr energiyasi yetkazib berish bo‘yicha trilateral kelishuvga. Bu mintaqaviy energiya xavfsizligini mustahkamlashga yordam beradi. Shu yil ichida amalga oshirilgan diplomatik tashriflar va siyosiy yig‘ilishlar ikki davlat o‘rtasidagi ishonchni oshirdi, yangi mexanizmlarni yaratdi va mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qildi.

MUHOKAMA

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi madaniy-iqtisodiy hamkorlik nafaqat ikki davlatning ichki rivojiga, balki mintaqaviy barqarorlikka ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Madaniyat sohasida amalga oshirilgan tadbirlar, xususan, 2023-yilda Samarqand va Buxoroda Qozog‘iston madaniyati kunlari hamda 2024-yilda Ostona va Olmaotada O‘zbekiston madaniyati kunlari xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvni sezilarli darajada faollashtirdi [Dunyo News Agency, 2025]. Bu tadbirlar ikki tomonlama do‘stlik va xalqaro gumanitar aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Turizm sohasida, xususan Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab qo‘shma sayyohlik paketlari tashkil etilishi, 2025-yilda Qozog‘istondan O‘zbekistonga kelgan turistlar sonining 1,3 millionga yetishi bilan amaliy natijalar berdi. Shu bilan birga, turizm loyihalari yangi ish o‘rinlari yaratish va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik sohasida 2025-yilda ishga tushirilgan \$1,2 milliardlik yetti qo‘shma loyiha sanoat, qurilish, moliya, logistika va turizm sohalarini qamrab oldi, bu esa ikki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qildi. Parlamentlararo hamkorlik doirasida imzolangan 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi siyosiy va strategik mexanizmlarni yanada mustahkamladi. Ta‘lim va ilm-fan sohasida 2025-yilda Strategik Tadqiqotlar Instituti hamkorligi orqali bir qator akademik va ilmiy loyihalar amalga oshirildi, bu esa ikki mamlakatning ilmiy va texnologik salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, universitetlararo almashinuv va ikki darajali dasturlar orqali talabalar va ilmiy xodimlar o‘rtasidagi gumanitar aloqalar mustahkamlandi.

Energetika sohasida 2025-yilda Qozog‘iston, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida qish mavsumida elektr energiyasi yetkazib berish bo‘yicha trilateral kelishuvga erishildi, bu mintaqaviy energiya xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Ekologik hamkorlik doirasida esa saiga anteloplarini himoya qilish bo‘yicha memorandum tayyorlandi, bu biologik xilma-xillikni saqlashga yordam beradi. 1991-yildan beri ikki mamlakat mustaqil tashqi siyosatni rivojlantirishga intilib, mintaqaviy barqarorlik va strategik sheriklikni ta‘minlashga qaratilgan sa‘y-harakatlarni amalga oshirdi. Siyosiy tashriflar va yuqori darajadagi uchrashuvlar ikki davlat o‘rtasidagi ishonch va ochiqlikni oshirdi. Masalan, 2023-yil 18–19 fevral kunlari O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Ostona shahriga rasmiy javob tashrifi bilan bordi va ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari rahbarlari uchrashuv

bayonnomasi qabul qilindi [Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Kazakhstan, 2024].

2024-yilda Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlari yig'ilishlarida ishtirok etish orqali siyosiy hamkorlikning yangi mexanizmlari mustahkamlandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Oliy Majlisi Spikeri va Qozog'iston Parlamenti Raisi rasmiy tashriflar bilan almashildi. Madaniy, turizm, ta'lim, ilmiy, energetika va ekologiya sohalaridagi integratsiya ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu tarzda, O'zbekiston-Qozog'iston hamkorligi nafaqat ikki davlatning ichki rivojiga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror rivojlanish va uyushqoqlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

XULOSA

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va ta'lim sohasidagi hamkorlik so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. 2023–2025-yillarda amalga oshirilgan madaniyat kunlari xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Samarqand va Buxoroda Qozog'iston madaniyati kunlari, Ostona va Olmaotada O'zbekiston madaniyati kunlari bu jarayonning amaliy namunalari bo'ldi. Turizm sohasida qo'shma sayyohlik paketlari tashkil etilib, Buyuk Ipak yo'li bo'ylab sayyohlar oqimi oshdi. Natijada, Qozog'istondan O'zbekistonga kelayotgan turistlar soni 1,3 millionga yetdi. Iqtisodiyot sohasida \$1,2 milliard miqdoridagi qo'shma loyihalar amalga oshirildi, bu yangi ish o'rinlarini yaratishga va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shdi. Energetika va ekologiya sohalarida trilateral kelishuvlar va memorandumlar mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Ta'lim va ilmiy hamkorlik, jumladan universitetlararo akademik almashinuvlar, mintaqaviy innovatsion salohiyatni oshirdi. Shu bilan birga, davlat rahbarlarining rasmiy tashriflari va parlamentlararo hamkorlik yo'l xaritalari strategik sheriklikni yanada mustahkamladi. Madaniy diplomatiya, iqtisodiy integratsiya va ilmiy almashinuvlar ikki davlatning uzoq muddatli barqaror rivojiga xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiya va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Shu bois, qo'shma loyihalar va strategik tashabbuslarni yanada ko'paytirish zarur.

Maqolada tahlil qilingan ma'lumotlar asosida kelgusida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin: birinchidan, madaniyat va ta'lim sohasidagi almashinuvlarni kengaytirish. Ikkinchidan, turizm va iqtisodiy integratsiya yo'nalishida qo'shma loyihalarni yanada ko'paytirish. Uchinchi, ilmiy va strategik tadqiqotlarni kuchaytirish va universitetlararo hamkorlikni rivojlantirish. To'rtinchi, ekologiya va energetika sohasida trilateral kelishuvlar orqali mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash. Maqola yangi tadqiqotlar uchun poydevor yaratadi, chunki ikki davlatning uzoq muddatli hamkorlik strategiyasi va mintaqaviy integratsiyani chuqurroq o'rganish zarur. Bu tadqiqotlar nafaqat ilmiy, balki

amaliy jihatdan ham foydali bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Kelgusida, qo‘shma festival va ilmiy konferensiyalar tashkil etish, turizmni rivojlantirish va yangi iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat ikki davlat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va gumanitar aloqalarni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va ilmiy salohiyatni oshirish orqali strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatadiki, har bir yangi loyiha mintaqaviy barqarorlik va integratsiya yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Kitoblar

1. Mandelbaum, M. Central Asia and the World: Kazakhstan, Uzbekistan, Tajikistan, Kyrgyzstan, and Turkmenistan. – New York: Council on Foreign Relations Press, 1994.

Jurnallar

2. Shokh, A. Uzbekistan–Kazakhstan economic and cultural cooperation. – 2023. – World of Science Journal. – [Electronic resource]. – URL: <https://www.wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/2388/3001> (accessed: 27.12.2025).

3. Mirkomilov, B., Tangirova, N. Uzbekistan and Kazakhstan cultural-economic relations. – 2024. – Journal of New Century Innovations. – [Electronic resource]. – URL: https://scientific-jl.org/index.php/newVolume-67_Issue-5_December-2024 (accessed: 27.12.2025).

Vebsayt

4. Dunyo News Agency. Uzbekistan–Kazakhstan cooperation strengthened by cultural, educational, and tourism initiatives. – 2025. – [Electronic resource]. – Dunyo. – URL: <https://dunyo.uz/news/uzbekistan-kazakhstan-cooperation-initiatives> (accessed: 27.12.2025).

5. Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Kazakhstan. Bilateral meetings and official visits of Uzbekistan and Kazakhstan officials. – 2024. – [Electronic resource]. – Gov.kz. – URL: <https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-tashkent/activities/2275?lang=en> (accessed: 27.12.2025).

6. Kazinform News Agency. (2025). Kazakhstan, Uzbekistan strengthen ties through new joint projects. Kazinform [Online]. Available at: <https://qazinform.com/news/kazakhstan-uzbekistan-strengthen-ties-through-new-joint-projects-5aafa0> (Accessed: 27 Dec. 2025).
7. Uzbekistan and Kazakhstan: Commitment to a shared history and common prosperity. – [Electronic resource]. – Uzbekistan.org.ua. – URL: <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7002-o-zbekiston-qozog-iston-mushtarak-tarix-va-umumiy-farovonlikka-sodiqlik-namunasi.html> (accessed: 27.12.2025).
8. Uzbekistan–Kazakhstan relations. – [Electronic resource]. – Wikipedia. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Uzbekistan%E2%80%93Kazakhstan_relations (accessed: 27.12.2025).